

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MEHNATDAGI INDIVIDUALLIGINI RIVOJLANTIRISH

Hamroyeva Oydin Normurod qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Izzatullayeva Sabina

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati jarayonida ularning individualligini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bolaning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, mehnat jarayonida mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi sifatlarni rivojlantirishda tarbiyachining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mehnat faoliyati orqali bolalarda o'z imkoniyatlarini anglash, ijtimoiy muhitga moslashish va shaxs sifatida kamol topish jarayonlariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mehnat faoliyati bolalarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim, tarbiya, fikrlash, ijodkorlik, motivatsiya, qobiliyat.

Annotation. This article highlights the issues of forming and developing the individuality of preschool children in the process of their labor activity. The role of the educator in identifying the personal characteristics of the child, developing such qualities as independence, responsibility, initiative, and creativity in the labor process is analyzed. Also, through labor activity, attention is paid to the processes of children's self-awareness, adaptation to the social environment, and personal development. The research results show that labor activity, organized on the basis of an individual approach, plays an important role in the development of children's personal abilities, the formation of a positive attitude to work, and ensuring their socio-emotional development.

Keywords: preschool education, education, upbringing, thinking, creativity, motivation, ability.

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbayi, barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoitlaridir, ushbu bilan birga inson hayotiy faolyatining asosiy shakllaridir, kishi hayotining mazmuni va har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir. Mehnat qadimdan jamiyatning axloqiy prinsipi hisoblanib kelingan. Mehnat–faqat shaxsiy moddiy faravonlik manbaigina emas, balki xalqqa xizmat qilish, vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirishning asosi hamdir.

Madaniyatli kishi mehnatsevar bo'lib yetishadi. Mehnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan odamdan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi, tarbiyalanganligi avvalo mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi.

Mehnat insonni ulug'laydi go'zallikka chorlaydi. Mehnatsiz turmush mazmunsiz o'tadi. Mehnat qilmaydigan inson hayoti zerikarlidir. U ma'naviy qashshoq, jismoniy zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rish siri ham mehnatdadir. Mehnat qilmasang, hatto buyuk iste'dod ham so'nadi, mehnat har qanday qobiliyatni rivojlantiradi. Terlab-pishib qilingan mehnat erta hosil beradi, mehnatdan qobiliyat, qobiliyatdan iste'dod, undan esa daholik paydo bo'ladi. Hammasining zamirida sidqi dildan qilingan mehnat yotadi. Mehnat baxt timsoli ekanligi hammaga ayon. Inson yaralgandan buyon mehnat faolyati bilan shug'ullanib kelgan. Mehnat har qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbai.

Inson hayotida mehnatning ahamiyati hamma vaqt barcha xalqlarning eng asl farzandlari–mutafakkirlari, olimu-fozillarning diqqat markazida bo'lgan. Mehnat jarayonida insoniy xislatlarning faol namayon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma'naviy qoniqish hosil qiladi.

Har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishish uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnatdagi individualligini rivojlantirish — ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Mehnat faoliyati bolalarda mas'uliyat, tartiblilik, mustaqillik, ijodkorlik va o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolaning individualligini qo'llab-quvvatlash uchun tarbiyachi har bir bola shaxsini chuqur o'rganishi, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos pedagogik yondashuvni tanlashi zarur. Mehnat jarayonida individual yondashuv asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarning o'ziga ishonchini oshiradi, ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasini individuallashtirish ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi muhim metodik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.B.Qodirov. Komil inson tarbiyasining pedagogik asarlari. T-2001.
2. M.Quramov. Oila – milliy tarbiya o'chog'i. Xalq ta'limi jurnal. T-2007
3. U.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila xamkorligi. T-2008.
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161)